O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI
NORIN TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

2024 - yil 19 - mart 158-6-83-Q/24 Norin tuman hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 16-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 31-yanvardagi PF-24-son Farmoni ijrosi haqida” gi 80-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

Mamlakatimizda aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchilligini ta’minlash, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo‘llab-quvvatlash hamda pensiya va nafaqalar miqdorlarining rasman belgilangan eng kam iste’mol xarajatlaridan kam bo‘lmasligini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 31-yanvardagi PF-24-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024 yil 16 fevraldagi 80-6-0-Q/24-sonli qarorini tumanda ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 16-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 31-yanvardagi PF-24-son Farmoni ijrosi haqida” gi 80-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta’minlash uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 31-yanvardagi PF-24-son Farmoni bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.Ushbu qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari va Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i G‘.Primqulov belgilansin.

4.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi **Ж.Нурматов**